

**Universitetda pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish bo‘yicha
takomillashtirilgan hujjatlar to‘plamini ishlab
chiqish uchun o‘tkaziladigan tanlovga
NIZOM**

I.Umumiq qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat” to‘g‘risidagi O‘RQ-576-sonli qonuni, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 27-avgustdagи “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2017-yil 31-maydagi 239/9-son qarori bilan o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan “Dissertatsiyalar ilmiy natijalarini amaliyatga joriy qilinishini baholash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalari to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarga muvofiq, yoshlarni ilm-fan sohasiga keng jalb etish, ularga ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlarini uchun shart-sharoitlar yaratish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning maqsadi – doktorant va tadqiqotchilar hamda pedagog-xodimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini joriy etishlarini qo’llab-quvvatlashdan iborat.

II. Tanlovni o‘tkazish tartibi

3. Universitetda pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish bo‘yicha takomillashtirilgan hujjatlar to‘plamini ishlab chiqish tanloviga pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni, imkoniyati va vositalari asoslangan hamda quyidagi hujjatlar to‘plamini o‘zida aks ettirgan loyihalar qabul qilinadi:

- tajriba-sinov ishlariga talabgor va universitet o‘rtasidagi shartnomma shakli;
- tajriba-sinov ishlarining dasturi shakli;
- tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun respondent roziligin rasmiylashtirish shakli;
- tajriba-sinov ishlarining yakuni bo‘yicha dalolatnomaning rasmiylashtirish shakli. Bundan tashqari loyiha mualliflari boshqa hujjatlarni ham taqdim etishlari mumkin.

4. Tanlovda doktorantlar, pedagog-xodimlar, tadqiqotchilar hamda universitetning barcha jamoa a’zolari ishtiroy etishlari mumkin.

6. Tanlovga taqdim etilayotgan loyihalarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga qo‘yilgan talablarning hamda tajriba-sinov ishlarini boshqarishning fuknsiyalari va metodlarini ishlab chiqilganli;
- pedagogik tajriba-sinov obyektini tanlash va respondentlar tayyorgarligiga qo‘yiladigan ilmiy-metodik talablarning ishlab chiqilganligi;

- pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqilganligi;

- pedagogik tajriba-sinov ishlari statistik tahlilining optimal usullari tavsiya etilganligi.

7. Tanlov ishtirokchilari loyihalarini 2024-yil 29-iyul soat 16:00 ga qadar Ilmiy tadqqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlash tayyorlash bo'limiga elektron va tasdiqlangan shaklda taqdim etiladi.

8. Tanlov quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- tanlovga taqdim etilgan loyihalarni saralash, ekspertizadan o'tkazish uchun Komissiya tomonidan 10 ish kunida ko'rib chiqiladi va quyidagi mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanad:

| T/r | Baholash mezoni | Belgilangan ball | Komissiya tomonidan qo'yilgan ball |
|-------------|--|------------------|------------------------------------|
| 1 | pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga qo'yilgan talablarning hamda tajriba-sinov ishlarini boshqarishning funksiyalari va metodlarini ishlab chiqilganli | 0-25 | |
| 2 | pedagogik tajriba-sinov obyektini tanlash va respondentlar tayyorgarligiga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablarning ishlab chiqilganligi | 0-25 | |
| 3 | pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqilganligi | 0-25 | |
| 4 | pedagogik tajriba-sinov ishlari statistik tahlilining optimal usullari tavsiya etilganligi | 0-25 | |
| Jami | | 100 | |

- komissiya xulosasiga ko'ra 50 balldan yuqori baholangan loyiha muallifi (bir kishi yoki jamoa)ning taqdimoti eshitiladi hamda tanlov g'olibani aniqlanadi va Komissiya bayyonomasi rasmiylashtiriladi.

- komissiya bayyonomasi universitet kengashining avgust oyidagi majlisiga taqdim etiladi va kengashda loyiha g'olibini tasdiqlangan xolda taqdirlanadi.

III. Yakuniy qoidalar

9. Tanlovni yuqorida darajada o'tkazishga Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor mas'ul hisoblanadi.

10. Tanlov yakunida g'olib bo'lgan loyihaga qo'shimcha o'zgartirish va to'ldirish sharti bilan Universitet Kengashining 2024-yildagi avgust oyi kun tartibiga kiritiladi hamda 2024-2025 o'quv yilidan universitetda pedagogik tajriba-sinov ishlari shu loyiha asosida olib boriladi.